

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI HUQUQ IJODKORLIGI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Abduraxim Xasanov

**O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15450001>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ichki ishlar vazirligi huquq ijodkorligi faoliyatining samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Muallif normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari sifatli tayyorlanishini hamda qonuniylikni ta'minlash maqsadida ichki ishlar organlari norma ijodkorligi faoliyatini muttasil takomillashtirish zarurligi haqida xulosaga kelgan.

Kalit so'zlar: norma ijodkorligi, idoraviy huquq ijodkorligi, rejalashtirish, normativ-huquqiy hujjat, ichki ishlar organlari, qonunchilik texnikasi, hujjatning qonuniyligi.

Ijro hokimiyatining organi sifatida ichki ishlar organlari ham faol norma ijodkorligi subyekti sanaladi. Shu sohada yetuk huquqshonos olim Y.Arzasovning fikricha, idoraviy normativ huquqiy hujjatlar har doim ham qonuniylik namunasi bo'lmaydi, ular ko'pincha davlat hokimiyati organlari, davlat xizmatchilari va fuqarolarga vazifalar yuklatadi, bu esa inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish va ta'minlash sohasida muammolarni vujudga keltiradi. Bugungi kunda amaliyotda ko'plab masalalar idoraviy normativ huquqiy hujjatlar shaklini tanlash muammosi bilan bog'liq, chunki ular qonun bilan mustahkamlanmagan va ijro etuvchi hokimiyatning turli davlat organlarida idoraviy normativ hujjatlarni tayyorlashning o'z qoidalari amal qiladi. Masalan, ichki ishlar organlari, bojhona organlari, atrof muhitni muhofaza qilish organlari va boshqalar¹.

So'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar miqdor tarkibining tahlili qiziqarli tendensiyaning aniqlash imkonini beradi. Qonunlar soni barcha normativ-huquqiy hujjatlarning juda kam qismini tashkil etadi, qolgan hujjatlar qonun osti xususiyatiga ega. Shunday qilib, eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi lozim bo'lgan qonunlar huquqiy hujjatlar umumiy miqdorining juda oz miqdorini tashkil etadi, lekin aynan qonunlarni qabul qilish tartib-taomillari qonun hujjatlarida ayniqsa mufassal tartibga solingan va aksincha, jami hujjatlarning asosiy qismini tashkil etuvchi qonun osti normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish tartib-taomillari ularda deyarli aks ettirilmagan. Binobarin, qonunchilikni takomillashtirish chog'ida bunday "nomutanosiblik" sabablarini aniqlash va idoraviy norma ijodkorligi tartib-taomillariga yanada qat'iyroq tus berish lozim.

Qisqa vaqt ichida, ichki ishlar organlarining davlat boshqaruvi oqilona amalga oshirilishini, IIV tizimining tashkiliy, moliyaviy, iqtisodiy va boshqa muammolari yechilishini ta'minlash maqsadida ancha yirik normativ-huquqiy baza yaratildi. Shu bilan birga, normativ baza ichki ishlar organlari tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini lozim darajada ta'minlamaydi, huquqni muhofaza qilishga doir va tizim doirasidagi munosabatlar majmuini lozim darajada tartibga solishni amalga oshirish imkonini bermaydi.

Ichki ishlar vazirligi huquq ijodkorligi faoliyatining tahlili shuni ko'rsatadiki, ijobiy natijalar bilan bir qatorda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. IIVda ishlab chiqilgan va

¹ Арзамасов Ю.Г. Теория и практика ведомственного нормотворчества в России: Монография. – М., Юрлитинформ, 2013. – С. 4.

qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar qonuniylik talablariga har doim ham javob bermasligi mumkin. Huquqni qo'llash faoliyatida ustuvor tamoyillar o'zgarganiga qaramay, ishlab chiqilayotgan hujjatlarga ba'zan fuqarolarning huquqlarini cheklovchi yoki munosabatlar subyektlarini teng bo'lmagan sharoitlarga solib qo'yuvchi normalar uchrab turadi.

Hozirgi vaqtda zarurat bo'lmagan holda yuqori turuvchi organlarning hujjatlarini takrorlovchi turli idoraviy hujjatlar amal qiladi, ayrim hujjatlarning qoidalari deklarativligi va mavhumligi bilan ajralib turadi, yuridik texnika qoidalariga mos kelmaydi. Qonun osti norma ijodkorligining sustkashligi ichki ishlar organlari bo'linmalarining ish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2016-yilda qabul qilingan "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimida huquq ijodkorligi munosabatlarini yanada aniqroq tartibga solish imkonini berdi. Qonunning qabul qilinishi idoraviy huquq ijodkorligining rivojlanishiga ko'maklashdi. Bu ishning zarurligi idoraviy huquq ijodkorligining mohiyati, xususan qonun hujjatlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish, qonunlardagi blanket normalarni amalga oshirish, IIV vakolatlari doirasiga kiritilgan ijtimoiy munosabatlar sohalari normativ mustahkamlanishini ta'minlash zaruriyati bilan belgilanadi. Bu yerda idoraviy huquq ijodkorligi siyosati, shuningdek uning muhim talablaridan biri – huquq ijodkorligi faoliyatining qonuniyligi muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining qabul qilinishi hamda unda nazarda tutilgan yangi qoidalar, hususan, Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi hamda insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilashi lozimligi kabi normalar bevosita ijro organlari huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash faoliyatiga yangi talablarni qo'ymoqda.

IIV huquq ijodkorligi faoliyatining qonuniyligini ta'minlash, (qonunlarni amalga oshirish, ularga rioya etish shakli sifatida) nomigagina rioya etish emas, chunki huquq ijodkorligi jarayoni (va tartibi)ning qonuniyligi darajasining o'ziga mavhum baho berish bilan kifoyalanish, idoraviy normalar mazmunining qonuniyligini e'tibordan qochirish mumkin emas. Bu idoraviy huquq ijodkorligining qonuniyligi muammolarini a) idoraviy huquqiy normalar mazmunining qonuniyligi va b) idoraviy hujjatlarni yaratish va qabul qilish tartibining qonuniyligi nuqtai nazaridan o'rganishni taqozo etadi.

Bundan tashqari, idoraviy normalar shaxs huquqiy maqomini cheklovchi normalarni amalga kiritishi (yoki amaldagi normalarni o'zgartirishi) mumkin emas. Ichki ishlar organlarining idoraviy hujjatlari sirtga tatbiq etilmasligi tufayli, ular organ doirasidan chetga chiqadigan munosabatlarni tartibga solishi mumkin emas. Nihoyat, idoraviy normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish asoslangan bo'lishi, ya'ni uning normalariga ehtiyoj bo'lishi lozim.

Ko'rsatilgan talablarni bajarish uchun qonun chiqaruvchi IIV maqomini aniqlovchi vakolat beruvchi hujjatlarda vakolatlarni ro'yxatini va ularni amalga oshirish usullarini ko'rsatishi lozim. Iidoraviy normalar IIV faoliyati sohasiga kirsada, lekin qonun darajasidagina tartibga solinadigan munosabatlar – Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslar va qonunga binoan qonun osti hujjatlarining aralashuvi to'g'ridan-to'g'ri man etiladigan boshqa munosabatlarni tartibga solishi mumkin emas.

Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish tartibining qonuniyligi, avvalo, uni huquqiy hujjatlarda tashkiliy-huquqiy jihatdan mustahkamlash yo'li bilan ta'minlanadi. Huquq ijodkorligi munosabatlarini amalga oshirishdagi kamchiliklar, shu jumladan, IIV tizimida ham norma ijodkorligi tartib-taomillariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu muammo bo'yicha mavjud hujjatlar (masalan, Normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlashga doir metodik tavsiyalar) barcha muammolarni hal qilmaydi va ancha eskirgan. Fikrimizcha, metodik tavsiyalar norma ijodkorligi sub'ekti zarur malaka orttirishi uchun zarur va yordamchi rol o'ynaydi. Norma ijodkorligi jarayonini tartibga solish, uni "qonuniylashtirish" uchun norma ijodkorligi tartib-taomillarini aniq belgilovchi maxsus normativ-huquqiy hujjat zarur.

Shunday qilib, quyidagilar idoraviy huquqiy hujjat sifatini belgilovchi mezon-talablar hisoblanadi: 1) hujjat normalarining huquqiy qimmati; 2) hujjat mazmunida manfaatlar to'qnashuviga chek qo'yilganlik darajasi; 3) normativ manfaatlarining himoyalanganligi; 4) qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligi: hujjat matnining aniq, sodda va savodli tili, lozim darajadagi bayon etish uslubi, shuning tarkibiy jihatdan yaxlit va tugallanganligi; 5) hujjat yuridik normalarini belgilash va ifodalashning to'liqligi; 6) hujjatning belgilangan talablarga mazmun va shakl jihatidan muvofiqligi; 7) hujjatda mustahkamlangan huquqiy tartibga solish vositalarining optimalligi; 8) hujjat mazmunining uni qabul qilgan sub'ekt vakolati va maqomiga muvofiqligi; 9) hujjatning qonuniyligi 10) mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning maqsad va vazifalariga muvofiqligi.

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, idoraviy huquq ijodkorligi jo'shqin hodisa bo'lgani bois, IIV norma ijodkorligi faoliyatini muttasil takomillashtirish zaruriyati tug'iladi. Quyidagilar bu jarayonning ustuvor vazifalari bo'lishi mumkin: a) zamonaviy huquq ijodkorligi texnologiyasini ishlab chiqish; b) idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning avtomatlashtirilgan ma'lumot-huquqiy tizimini yaratish va uni IIV barcha darajadagi bo'linmalari faoliyatida keng joriy etish; v) IIV normativ-huquqiy hujjatlarining rasmiy to'plamlarini vaqti-vaqti bilan nashr etish; g) huquqiy hujjatlar massivini shu jumladan nizomlar, ustavlar, qoidalar sifatidagi normativ-huquqiy hujjatlarni kodekslashtirish yo'li bilan mumkin qadar kamaytirish.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.03.2022-y., 03/22/756/0180-son
2. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
3. Арзамасов Ю.Г. Теория и практика ведомственного нормотворчества в России: Монография. – М., Юрлитинформ, 2013. – С. 4.